

O'ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLARDAGI ROLI

Baxitova Dilfuza

Berdaq nomidagi QDU "Siyosatshunoslik" ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18721533>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar tizimidagi o'rni, tashqi siyosatining ko'p tomonlama diplomatiyaga asoslanganligi hamda global va mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish, ekologiya va gumanitar sohalardagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatning BMT, SHHT, MDH, YeXHT, va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi tashabbuslari, erishilgan natijalari hamda istiqbollari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kali sozlar: O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, tashqi siyosat, ko'p tomonlama diplomatiya, BMT, SHHT, MDH, YeXHT, IHT, global xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya.

Bugungi globallashuv davrida davlatlarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi ularning siyosiy nufuzi, iqtisodiy rivojlanishi va xavfsizlik tizimini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqaro hamjamiyatga faol integratsiyalashishni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy sohalarda keng hamkorlik qilib kelmoqda. Bu hamkorlik mamlakatning global maydondagi o'rnini mustahkamlash va barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari- Suverenitet va milliy manfaatlarini himoya qilish, Tinchlikparvarlik siyosati, Ko'p tomonlama diplomatiya, Xalqaro huquq normalariga amal qilish, Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish

O'zbekiston harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik siyosatini yuritadi hamda xalqaro nizolarni diplomatik yo'l bilan hal qilish tarafdori hisoblanadi.

O'zbekiston BMTning teng huquqli a'zosi sifatida xalqaro xavfsizlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanish yo'nalishlarida faol ishtirok etadi.

O'zbekiston 1992-yil 2-mart kuni yangi suveren va mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qo'shildi. Keyingi yili Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkiloti idorasi ochildi. O'zbekistondagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlik guruhi (UNCT) hozirda 25 ta BMT agentliklari, jamg'armalari va dasturlarini o'z ichiga oladi. Ular 2030-yilgi kun tartibi va Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq milliy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini ilgari surish uchun birgalikda ishlaydi.

2025-yil 24-oktyabrda O'zbekiston hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2026–2030-yillarga mo'ljallangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti barqaror rivojlanish hamkorligi doirasini (UNSDCF) imzoladi.

Ushbu yangi doira inson rivojlanishini rag'batlantirish, tengsizlikni kamaytirish va har bir inson taraqqiyotdan manfaatdor bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Keyingi besh yil davomida u O'zbekistonning milliy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlaydigan 25 ta BMT agentliklari, jamg'armalari va dasturlari faoliyatiga yo'l ko'rsatadi.

Hamkorlik doirasi oltita asosiy sohani belgilab beradi: samarali boshqaruv va adolat, munosib daromad va ijtimoiy himoya, sifatli sog'liqni saqlash va farovonlik, keng qamrovli va teng huquqli ta'lim, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit barqarorligi, shuningdek, Orol dengizi mintaqasining har tomonlama rivojlanishi.

Ushbu yangi doira inson rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, tengsizlikni kamaytirish va har bir inson taraqqiyotdan manfaatdor bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Kelgusi besh yil davomida u O'zbekistonning milliy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlaydigan 25 ta BMT agentliklari, jamg'armalari va dasturlari faoliyatiga yo'l ko'rsatadi.

Hamkorlik doirasi oltita asosiy yo'nalishni belgilab beradi: samarali boshqaruv va adolat, munosib daromad va ijtimoiy himoya, sifatli sog'liqni saqlash va farovonlik, keng qamrovli va teng huquqli ta'lim, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit barqarorligi; shuningdek, Orol dengizi mintaqasining har tomonlama rivojlanishi. O'zbekistondagi BMTning doimiy vakili yangi hamkorlik doirasi rivojlanishning markaziga odamlarni qo'yishini, shu jumladan, eng imtiyozsiz guruhlarini ham ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga va o'z jamoalarining taraqqiyotiga hissa qo'shishga undashga qaratilganligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2026–2030-yillarga mo'ljallangan yangi besh yillik hamkorlikka kirishganda, ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari 2030-yilga kelib yanada farovon, keng qamrovli va barqaror davlatni barpo etishga qaratiladi.

Hamkorlik doirasi Orol dengizi mintaqasiga alohida e'tibor qaratadi va uni barqaror rivojlanish markaziga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tashabbuslar aholining hayotini yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, ish o'rinlari yaratish va toza suvga kirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. O'zbekiston hukumati (Iqtisodiyot va moliyaviy vazirlik boshchiligidagi) va BMTning mamlakatdagi vakillik idoralari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan doira hukumat idoralari, mahalliy hokimiyatlar, fuqarolik jamiyati, yoshlar, xususiy sektor va xalqaro hamkorlar bilan chuqur maslahatlashuvlar orqali yaratildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley anjumani – 80-sessiyasidagi nutqining ahamiyati haqida Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov o'z fikrlarini bildirdi:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT minbaridan so'zlagan nutqi nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqamiz uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda milliy manfaatlar bilan bir qatorda, global hamjamiyatni tashvishga solayotgan masalalar — iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish, mintaqaviy xavfsizlik va inson huquqlariga jiddiy e'tibor qaratildi.

Ayniqsa, Afg'oniston masalasida amaliy takliflar bildirilishi, transport va energetika yo'laklari orqali Markaziy va Janubiy Osiyoni bir-biriga yaqinlashtirish g'oyasi xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu tashabbus nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki siyosiy barqarorlik va xavfsizlik nuqtai nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT minbaridan so'zlagan nutqi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamladi. Bu nutqni uchta muhim jihatdan ijobiy baholash mumkin.

Birinchi jihat – global masalalarga mas'uliyat bilan yondashuv. Nutqda iqlim o'zgarishi, ekologik xavflar, barqaror rivojlanish va inson huquqlari kabi jahon hamjamiyati uchun dolzarb masalalar ko'tarildi. Ayniqsa, Orolbo'yi fojiasiga xalqaro hamjamiyat e'tiborini yana bir bor jalb etilishi O'zbekistonning ekologik muammolarga jiddiy qarayotganidan dalolatdir.

Ikkinchi jihat – mintaqaviy barqarorlik va hamkorlik. Prezident nutqida Afg'oniston bilan konstruktiv muloqot va hamkorlik masalasiga alohida urg'u berdi. Afg'oniston orqali transport va energetika yo'laklari yaratish tashabbusi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun katta iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bu tashabbus mintaqqa taraqqiyotida yangi sahifa ochishi mumkin.

Uchinchi jihat – O‘zbekistonning xalqaro integratsiyaga ochiqqligi. Prezident xalqaro moliya institutlari, Jahon savdo tashkiloti va boshqa nufuzli tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligini ta’kidladi. Bu nutq O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari global standartlarga mos yo‘nalishda borishini namoyon qildi.

Menimcha, mazkur nutq nafaqat rasmiy diplomatik bayonot sifatida, balki O‘zbekistonning kelajak rivojlanish strategiyasi sifatida ham qaralishi mumkin. Unda ilgari surilgan tashabbuslar amaliy qadamlarga aylansa, mamlakatimiz mintaqaviy va global miqyosda nufuzli va ishonchli sherik sifatida yanada tan olinadi.

Prezident Mirziyoyevning BMTdagi nutqini O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlashda va mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini belgilashda muhim qadam sifatida yuksak baholanmoqda.

2001 yil tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ning asosiy maqsadi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xavfsizlikni ta’minlash va madaniy almashinuvni kuchaytirishdir.

SHHT maydonida o‘ziga xos mavqega ega O‘zbekiston mintaqaviy barqarorlikka munosib hissa qo‘shmoqda. Mamlakatimiz xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash uchun zarur shart-sharoit yaratishga hissa qo‘shmoqda. Bunday sa’y-harakatlar yurtimizning mintaqaviy siyosatdagi muhim o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) banklararo konsorsiumi (ShHT BK) 2005-yil 26-oktyabrda ShHT a'zo davlatlari hukumatlarining investitsiya loyihalariga moliyaviy yordam va bank xizmatlarini ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. ShHT BK kengashi barcha ishtirokchilarning kelishuviga asoslanib, yiliga kamida bir marta chaqiriladi. Kengash raisligi navbatma-navbat asosida amalga oshiriladi. ShHT BK a'zolari: Qozog'iston Taraqqiyot banki, Xitoy Davlat Taraqqiyot banki, Qirg'iziston Respublikasining "RSK Bank" to'lov-jamg'arma kompaniyasi, Rossiya Federatsiyasining Taraqqiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar banki "vnesheconombank", Tojikiston Respublikasining Davlat jamg'arma banki "Amonatbank" va O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. ShHT BK doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: infratuzilma, asosiy sanoat, yuqori texnologiyali sanoat, eksportga yo'naltirilgan sohalar va ijtimoiy loyihalarga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish; umumiy qabul qilingan xalqaro bank amaliyotlariga asoslanib, kreditlarni berish va moliyalashtirish; ShHT a'zo davlatlari o'rtasida savdo va iqtisodiy hamkorlikni rag'batlantirish uchun eksportdan oldin moliyalashtirishni tashkil etish va boshqa umumiy manfaatdorlik sohalari. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) – suveren davlatlarning erkin ittifoqi bo'lib, u 1991-yilda Rossiya va avval Sovet Ittifoqining bir qismi bo'lgan boshqa 11 respublika tomonidan tashkil etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) tashkil etilishi 1991-yil 8-dekabrda boshlandi, o'shanda Rossiya, Ukraina va Belarussiyaning saylangan rahbarlari Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini (SSSR) almashtiradigan yangi ittifoqni tashkil etish bo'yicha kelishuvga imzo qo'yishdi. Keyinchalik, bu uchta slavyan respublikasiga Markaziy Osiyo respublikalari – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston, Transkavkaz respublikalari – Armaniston, Ozarbayjon va Gruziya, shuningdek, Moldova qo'shildi. (Qolgan sobiq Sovet respublikalari – Litva, Latviya va Estoniya – yangi tashkilotga qo'shilishdan bosh tortdi). MDH rasman 1991-yil 21-dekabrda tashkil etildi va uning ma'muriy markazi sifatida Belarussiyaning Minsk shahri belgilandi, shundan so'ng u o'sha oyda faoliyatini boshladi.

2025-yil 10-oktyabrda Dushanbe shahrida MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisi bo'lib o'tadi, unda, jumladan, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Iqtisodiy integratsiya – MDH davlatlari O'zbekistonning muhim savdo hamkorlari hisoblanadi. Transport, energetika, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu orqali mamlakat o'z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilmoqda va yangi bozorlar bilan aloqalarni kengaytirmoqda.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik – MDH doirasida terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma dasturlar mavjud. Bu esa mintaqada barqarorlikni saqlashga va umumiy xavfsizlik tizimini mustahkamlashga yordam beradi.

Gumanitar va madaniy aloqalar – Ta'lim, ilm-fan, madaniyat va turizm sohalarida hamkorlik xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, madaniy integratsiya orqali mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga imkon beradi.

Xavfsizlik ahamiyati: MDH terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, chegaralarni muhofaza qilish va harbiy hamkorlikni muvofiqlashtirishda muhim platforma sifatida xizmat qiladi.

Innovatsiya va raqamli hamkorlik: So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, ilm-fan va texnologiya sohalarida qo'shma strategiyalar ishlab chiqilmoqda, bu esa mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shadi.

Diplomatik platforma: MDH davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va siyosiy dialogni davom ettirish imkonini beradi.

Shunday qilib, MDH va O'zbekistonning ushbu tashkilotdagi ishtiroki mintaqaviy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, xavfsizlikni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda davlatlar o'rtasida diplomatik muloqot maydonini yaratish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. O'zbekiston MDH doirasida o'z milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish siyosatini olib boradi. Shu bilan birga, MDHning kelajakdagi faoliyati mintaqaviy integratsiya va barqarorlikni yanada mustahkamlash, innovatsion hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy diplomatik maydon sifatida saqlash imkonini beradi.

Kelajakda ham MDH va O'zbekistonning ushbu platformadagi roli sobiq sovet hududida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va xavfsizlikni mustahkamlashda markaziy ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Shu nuqtai nazardan, MDH O'zbekistonning tashqi siyosatida muhim instrument sifatida xizmat qilmoqda va bu rolni kelajakda yanada kengaytirishi kutilmoqda.

YeXHT (Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti) — bu Yevropa va qo'shni mintaqalar xavfsizligini, barqarorligini va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan eng yirik mintaqaviy tashkilotlardan biridir. Tashkilotning asosiy vazifasi siyosiy va harbiy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni rivojlantirish, shuningdek inson huquqlari va demokratik institutlarni mustahkamlashdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, 1992 yildan boshlab YeXHT a'zosi sifatida faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistonning YeXHT bilan hamkorligi mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, transmilliy jinoyatlarga, jumladan terrorizm va narkotik savdosiga qarshi birgalikda kurashish, shuningdek iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini qamrab oladi.

Shuningdek, mamlakat saylovlar monitoringi, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va demokratik jarayonlarni rivojlantirish orqali inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha hamkorlikni olib boradi.

O'zbekiston nafaqat YeXHT, balki boshqa xalqaro tashkilotlarda ham faol qatnashadi. BMT va SHHT doirasida mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikni ilgari suradi, Islom Hamkorlik Tashkiloti doirasida esa mintaqaviy taraqqiyot va barqarorlik masalalarida o'z hissasini qo'shadi. Shu bilan birga, mamlakat transmilliy va mintaqaviy platformalar orqali energetika, transport va ekologik loyihalarda strategik sheriklikni mustahkamlashga intiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston barqaror va xavfsiz mintaqaga hissa qo'shishni, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni davom ettiradi. Shu sababli O'zbekistonning YeXHT va boshqa xalqaro tashkilotlardagi roli mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, diplomatik vositalar orqali nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va xalqaro maydonda ishonchli sherik sifatida tanilish bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro maydonda faol ishtirok etishga intildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasidagi roli mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tashkil qiladi.

O'zbekiston 1992-yilda BMTga a'zo bo'ldi va o'zining xalqaro majburiyatlarini bajarishda faol qatnashmoqda. Mamlakat BMTning turli organlarida tinchlikni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tashabbuslarni ilgari suradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston "xalqaro hamkorlik orqali tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga intilmoqda", bu esa BMT bilan faol ish olib borishning strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston SDG maqsadlariga erishish uchun milliy dasturlarni amalga oshiradi va xalqaro tajribalarni o'rganadi.

O'zbekiston MDH tashkilotida 1991-yildan buyon faol a'zo sifatida qatnashadi. Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiya va transport-logistika sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, madaniy va ilmiy aloqalarni kengaytirish O'zbekistonning MDHdagi ustuvor vazifalaridir. O'zbekistonning MDHdagi ishtiroki mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va qo'shni davlatlar bilan do'stona hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

SHanxay Hamkorlik Tashkilotida O'zbekiston 2001-yildan beri faol a'zo bo'lib, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha loyihalarda ishtirok etadi. SHHT doirasida O'zbekiston mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va transport yo'llarini modernizatsiya qilishga hissa qo'shadi. SHHT bilan hamkorlik O'zbekistonning strategik pozitsiyasini mustahkamlash va Markaziy Osiyoda tinchlikni ta'minlashga imkon beradi.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi roli bugungi kunda mintaqaviy va global barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarga oid o'zgarishlar kiritish bo'yicha quyidagi takliflar mavjud: Xavfsizlik va barqarorlikni yanada kuchaytirish maqsadida BMT va SHHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish.

MDH doirasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tezlashtirish va transport-logistika loyihalarini kengaytirish.

Inson huquqlari, ta'lim va ekologiya sohalarida xalqaro standartlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga joriy etish.

Shu tarzda O'zbekiston xalqaro maydonda mas'uliyatli va faol a'zo sifatida o'z pozitsiyasini yanada mustahkamlashadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shavkat Mirziyoyev .<<Bir bolsak Bir Xoliqmiz Birlashshak-vatanmiz >>
<<O'zbekiston>>Toshkent-2024
2. <https://lex.uz>
3. uza.uz
4. [Cedr.uz](https://cedr.uz)
5. inlibrary.uz